IBROHIM HAQQUL TADQIQOTLARIDA AHMAD YASSAVIY IJODI

Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
g-mail: jumaboyevamaqsuda4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy ijodi atoqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul tomonidan chuqur va har tomonlama o‘rganilgani ta’kidlanadi. Ibrohim Haqqul Yassaviy merosiga nafaqat tarixiy va adabiy manba sifatida, balki ma’naviy-ma’rifiy hodisa sifatida ham yondashadi. Umuman, maqolada Ibrohim Haqqulning Yassaviy merosini nafaqat tadqiq qilgani, balki uni bugungi milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yangilanish jarayonlari bilan bog‘lagani alohida e’tirof etiladi. Shu orqali olim Ahmad Yassaviyni nafaqat tarixiy shaxs, balki doimiy ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida talqin etadi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, hikmatlar, tarixiy shaxs, tasavvufshunos, tadqiqot, Yassaviy merosi.

O‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida tasavvuf adabiyoti alohida o‘rin tutadi. Bu yo‘nalish nafaqat diniy-ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib qilgan, balki xalqning ma’naviy dunyosini boyitishda, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Xususan, turkiy xalqlarning tasavvufiy tafakkurida Ahmad Yassaviyning tutgan o‘rni beqiyosdir. Uning asarlari orqali diniy-falsafiy qarashlar oddiy xalq tilida ifodalanib, sof axloq, halollik, poklik, sabr-toqat kabi yuksak fazilatlar targ‘ib qilingan. Ahmad Yassaviy ijodi, xususan uning “Hikmatlar”i, o‘rta asr turkiy adabiy tilining shakllanishida, milliy tafakkurning o‘ziga xos yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham bu ulug‘ mutasavvif shoir ijodi tarixan ko‘plab olimlar, adabiyotshunoslar, mutafakkirlar e’tiborini tortib kelgan. Ularning ayrimlari Yassaviy merosini diniy-nasihat yo‘nalishida tahlil qilgan bo‘lsa, boshqalari uning til, uslub, badiiy mahoratiga e’tibor qaratgan. Shu jihatdan, Ahmad Yassaviy ijodining zamonaviy talqinlari, xususan adabiyotshunoslik doirasidagi yondashuvlar, bugungi ilmiy izlanishlar markazida alohida o‘rinni egallaydi. Ana shunday tadqiqotlar orasida Ibrohim Haqqul tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalar alohida e’tiborga loyiqdir.

Ahmad Yassaviy merosini zamonaviy adabiy-estetik mezonlar asosida qayta o‘qish, uni turli ilmiy qarashlar asosida tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada Ibrohim Haqqul tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida e’tiborga molikdir, chunki har ikkala tadqiqotchi Yassaviy merosiga o‘ziga xos yondashuv bilan yondashgan, biroq ularning tahlil uslubi, asosiy urg‘u bergan jihatlari hamda natijalarida farqlar mavjud.

Ibrohim Haqqul Yassaviy ijodini asosan falsafiy-estetik nuqtai nazardan baholaydi. U Yassaviy “Hikmatlar”ini nafaqat diniy-madaniy fenomen, balki poetik tafakkurning yuksak namunasi sifatida ko‘radi. Ibrohim Haqqulning tahlillarida Yassaviy shaxsiyati orqali butun bir davrning ruhiy-ma’naviy qiyofasi gavdalanadi. U Yassaviyning obrazlar tizimi, badiiy ifoda vositalari, ramz va timsollaridan yangi ma’naviy kontekst yaratishda foydalanadi. Bu yondashuv Yassaviy ijodining zamonaviy o‘quvchiga yangicha qiyofada ochilishiga xizmat qiladi. Ibrohim Haqqulning aytishicha, Ahmad Yassaviy “diniy-tasavvufiy ma’nolar muridlaridan tashqari keng xalq ommasi ongi va qalbida oson o‘rin topishisni ta’minlash

niyatida she’r imkoniyatlaridan ham mohirlik bilan foydalana oldi” [1, Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 25.].

“Ahmad Yassaviy she’rlarini o‘z ichiga olgan majmua “Devoni hikmat” islom dini asoslaridan baxs etuvchi, shariatning ahkomi va ahli sunnatning aqidalaridan saboq beruvchi, tasavvuf sirlari va tariqatning odob-u arkoni yoritilgan qomusiy harakterdagi asar”, deya fikr bildiradi Ibrohim Haqqul Ahmad Yassaviy hikmatlarini tahlil qilar ekan [2, Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 25.]. Asarda islomning asosiy e’tiqodlari, imon, ibodat, shariat qoidalari haqida ta’lim beriladi. Ya’ni, musulmon kishining qanday yashashi, nima qilish va nimalardan saqlanishi kerakligi haqida so‘z yuritiladi. “Devoni hikmat”da bu qonunlarning amaliy jihatlari, masalan, namoz, ro‘za, zakot kabi ibodatlar va harom-halol chegaralari o‘rgatiladi.

Yaxshilarni suhbatida jafo cheksam,
Yoshim oqib, Haqqa boqib, ko‘zim tiksam,
Namoz o‘qib, riyozatda tizzam buksam,
Ey mo‘minlar, Haqqa yaqin bo‘larmanmi? [3, Яссавий Аҳмад. Ҳикматлар тўплами. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – Б. 226.]

Ibrohim Haqqul o‘zining tadqiqotlarida, jumladan birgina “Ahmad Yassaviy” maqolasida Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiga oid barcha muhim jihatlarni mukammal tarzda yoritib beradi. Muallif maqolada Ahmad Yassaviyning tug‘ilishi, vafoti, ijodi, ustozlari, hikmatlari va ularning tahlili, tasavvufiy qarashlari, Yassaviylik tariqatining shakllanishi, rivojlanishi va keng tarqalishi haqida to‘liq ma’lumotlar taqdim etgan. Avvalo, Ahmad Yassaviy hayotining asosiy bosqichlari haqida so‘z boradi. Uning tavallud sanasi bilan bog‘liq boshqa xorij olim va olimalarning qarashlari va ularning fikrlarini asoslab, shaxsiy qarashlari ham ilmiy asoslar bilan berilgani, Turkiston (bugungi Qozog‘iston) hududida dunyoga kelgani, yoshligidan diniy ta’lim-tarbiyaga qiziqqani, ilm-ma’rifatga chanqoqligi bilan ajralib turgani ta’kidlanadi. Ahmad Yassaviy yoshligida yetuk olimlar va tasavvuf ahli bilan suhbatda bo‘lib, ma’naviy yetuklik sari intilgan. Maqolada uning umrining so‘nggi davrlarini xalq orasida Alloh yo‘lida xizmat qilish, odamlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish va tasavvufiy ta’limotlarni targ‘ib qilish bilan o‘tkazgani ham alohida urg‘u bilan yoritiladi. Shuningdek, Ahmad Yassaviy ijodiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada ta’kidlanishicha, uning “Devoni Hikmat” asari nafaqat diniy va axloqiy pand-u nasihatlar majmuasi, balki butun bir xalqning ruhiy-ma’naviy hayotini aks ettiruvchi nodir durdona hisoblanadi. Hikmatlar orqali u odamlarni to‘g‘rilikka, poklikka, sabr-qanoatga, Allohga sidqidildan xizmat qilishga da’vat etadi. Har bir hikmatda chuqur tasavvufiy ma’no, hayotiy tajriba va ma’naviy yetuklik mujassam. Maqolada Ahmad Yassaviy ustozlari haqida ham aniq ma’lumotlar beriladi. Tasavvufda murshid (ustoz) va murid (shogird) munosabatlari ma’naviy yetuklikka erishishda asosiy o‘rin tutadi. Arslonbob va Yusuf Hamadoniy kabi ulug‘ tasavvuf arboblari uning ustozlari sifatida tilga olinadi. Aynan ustozlaridan olgan bilim va tarbiya orqali Ahmad Yassaviy tasavvufning sir-asrorlarini o‘zlashtirib, keyinchalik o‘z maktabini yaratishga erishgani ta’kidlanadi. “Alisher Navoiy Farg‘onada “ulug” mashoyixni bob derlar” deydi. Shuningdek, “bob” va “bobo” so‘zi shayx, pir, valiylarga nisbatan ham qo‘llanilgan. Ahmad Yassaviy Turkistondagi boblarning eng buyugi, deya e’tirof etilgan Arslon bobdan tahsil olgan” [Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 23.]. Ahmad Yassaviy ota-onasining vafotidan keyin opasi Gavhari Shahnoz qo‘lida qoladi. Ular Yassiga ko‘chib kelishadi. Bu yerda Ahmad Yassaviy hayot yo‘lidagi ma’naviy ustozi Arslonbobga shogird tushadi. Ahmad Yassaviy bu buyuk shayx bilan uchrashganda yetti yoshda edi:

Yeti yoshda Arslon bobom izlab topdi,
Har sir ko‘rib parda birla bukib yopdi.

Yassaviy tasavvuf yo‘lida murshidning rahbarligisiz ma’naviy yetuklikka erishish qiyinligini tushungan va Hamadoniyga murid bo‘lish orqali bu yo‘lda muvaffaqiyat qozongan.

Shuningdek, Ibrohim Haqqul ilmiy faoliyatida, Ahmad Yassaviy hikmatlarining tahliliga chuqur e’tibor qaratiladi. Ibrohim Haqqul hikmatlarning har birida Allohga muhabbat, nafsga qarshi kurashish, dunyo lazzatlaridan voz kechish, insonni ichki tozalikka, ma’naviy komillikka yetaklash g‘oyalari asosiy o‘rinni egallashini ko‘rsatadi. Hikmatlar xalq tiliga yaqin, sodda va ravon uslubda yozilgan bo‘lib, ular orqali diniy-ta’limiy maqsad bilan xalq ongiga chuqur ta’sir o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, maqolada Ahmad Yassaviyning tasavvufiy qarashlari ham keng ochib beriladi. Uning fikricha, inson hayotining maqsadi Allohni topish, unga chin dildan sig‘inish va nafsni zabt etishdir. Dunyoviy zavqlardan voz kechish, hayotning foniyligiga ishonch va abadiy hayotga intilish – Ahmad Yassaviy tasavvufining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. “Yassaviy uchun Qur’ondagi har bir so‘z va har bir tushuncha – bu “Haq farmoni”. U ham zohiran, ham botinan shu farmonlarga to‘la taslim bo‘lmoq vas hu farmonlar bo‘yicha amal qilmoqni inson zimmasizdagi eng oliy vazifa va burch, deb hisoblaydi. Zero, uning:

Saharlarda Qur’on o‘qib sano bo‘lsam,
Hazratiga qo‘l ko‘tarib duo qilsam,
Zori qilib, bu jonimni fido qilsam,
Saharlarda ko‘pub toat qilgim kelur,
deyishi ham yuzaki bir istak bo‘lmagandir”. [Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 33.]

Ibrohim Haqqul Ahmad Yassaviy hayoti va ijodini tadqiq qilar ekan, Yassaviylik tariqatining shakllanishi, rivojlanishi va tarqalish jarayonlariga ham alohida to‘xtaladi. Ahmad Yassaviy o‘zining hikmatlari va ta’limoti orqali Yassaviylik tariqatining asosini qo‘yadi. Bu tariqat tasavvufning xalqchil shakli bo‘lib, unda soddalik, ixlos va Allohga yetishish uchun amal qilish zaruriyati targ‘ib qilinadi. Yassaviylik tariqati tez orada Turkistondan Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Sibir, hatto Anadolu va boshqa mintaqalarga tarqaladi. Tariqatning rivojlanishi natijasida ko‘plab muridlar, xalifalar yetishib chiqadi va ular orqali Ahmad Yassaviyning g‘oyalari uzoq yillar davomida saqlanib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim Haqqulning “Ahmad Yassaviy” maqolasi Ahmad Yassaviy shaxsi va ijodi haqidagi barcha asosiy jihatlarni chuqur va keng qamrovli tarzda ochib beradi. Muallif maqolada nafaqat tarixiy ma’lumotlarni, balki ijodiy va ma’naviy tahlillarni ham mahorat bilan ifodalaydi, Ahmad Yassaviyning o‘z zamonasidagi va keyingi davrlardagi o‘rni va ta’sirini to‘liq yoritib beradi.

Nodirxon Hasan o‘zining tadqiqotlarida Ahmad Yassaviy merosini chuqur tarixiy-manbashunoslik asosida tahlil etadi. U Yassaviy hayoti va ijodiga nafaqat tasavvufiy yoki adabiy nuqtai nazardan, balki tarixiy kontekstda yondashadi. Uning asarlarida Yassaviyning yashagan davri, muhitidagi ijtimoiy, siyosiy va diniy shart-sharoitlar batafsil ochib beriladi. “Ahmad Yassaviy qadimgi manbalarga ko‘ra120-130-yil yashagan. Vafot tarixi ilmiy adabiyotlarda hijriy 562, milodiy 1166-67-yil deb belgilangan”. [Yassaviy A. Boqirg‘oniy S. Hikmatlar kulliyoti. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 4.] Tadqiqotchi Yassaviy merosini tarixiy manba sifatida qadrlaydi va uni o‘rta asr musulmon jamiyatlarining ma’naviy-ma’rifiy manzarasini tiklashda muhim vosita deb hisoblaydi. “Ahmad Yassaviy xalqqa din va tasavvufdan saboq berish maqsadida ular anglaydigan ravon, soda tilda hikmat aytdi”,- deydi N. Hasan. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy xalqqa din va tasavvufdan saboq berishda o‘z zamonasining ijtimoiy, ma’naviy va madaniy sharoitlarini chuqur anglagan holda, murakkab diniy-ta’limotiy tushunchalarni oddiy xalq qalbiga yetib boradigan ravon va sodda tilda bayon

etishga intilgan. Uning hikmatlari inson ruhiyatiga yaqin, tushunarli, hayotiy masalalarga doir bo‘lib, ko‘pchilik tomonidan oson qabul qilinardi.

Yassaviy o‘z hikmatlarida sof axloqiy qarashlarni ilgari surib, insonni ichki poklik, sabr-toqat, halollik, taqvo, xudbinlikdan voz kechish kabi qadriyatlarga chorlagan. U xalq bilan bir tilda so‘zlashib, ularning dardini, ehtiyojini, saviyasini hisobga olib hikmatlar yaratgani bois, uning ta’limoti keng omma orasida chuqur ildiz otgan. Ahmad Yassaviy o‘z ijodi orqali tasavvufni faqatgina zohiriy ilmlarga emas, balki botiniy tushuncha va ruhiy kamolotga asoslangan yo‘l sifatida targ‘ib etdi. U hikmatlar orqali nafaqat diniy bilim, balki axloqiy-ruhiy tarbiyani ham xalq ongiga singdirishga harakat qildi.

Yassaviy o‘z hikmatlarida sof axloqiy qarashlarni ilgari surib, insonni ichki poklik, sabr-toqat, halollik, taqvo, xudbinlikdan voz kechish kabi qadriyatlarga chorlagan. U xalq bilan bir tilda so‘zlashib, ularning dardini, ehtiyojini, saviyasini hisobga olib hikmatlar yaratgani bois, uning ta’limoti keng omma orasida chuqur ildiz otgan. Ahmad Yassaviy o‘z ijodi orqali tasavvufni faqatgina zohiriy ilmlarga emas, balki botiniy tushuncha va ruhiy kamolotga asoslangan yo‘l sifatida targ‘ib etdi. U hikmatlar orqali nafaqat diniy bilim, balki axloqiy-ruhiy tarbiyani ham xalq ongiga singdirishga harakat qildi.

Adabiyotlar

1. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 345.
2. Яссавий Аҳмад. Ҳикматлар тўплами. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – Б. 226.
3. Yassaviy A. Boqirg‘oniy S. Hikmatlar kulliyoti. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 455.

RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR